MILLIY TARAQQIYOT YO‘LIDA YOSHLARNI MA’NAVIYATLI QILIB TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Xasanova Parvina Toxirjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
e-mail: aasel4903@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy o‘zlikni asrash yo‘lida yoshlar ongini yot g‘oyalardan himoya qilish maqsadida bir qator amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora tadbirlar va bu maqsad yo‘lining naqadar ahamiyatli ekanligi to‘g‘risida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, ta’lim, vatanga muhabbat, o‘zlikni anglash, barkamol shaxs, komil inson, madaniyat, milliy taraqqiyot, yoshlar ma’naviyati, qadriyat, an’ana, kitobxonlik, ma’naviy globallashuv, yot g‘oyalar.

Annotation: In this article, in order to protect the minds of young people from foreign ideas, in order to preserve the national identity, a number of measures should be taken and the importance of the path to this goal is expressed.

Key words: education, education, love of country, self-awareness, perfect personality, perfect person, culture, national development, youth spirituality, value, tradition, reading books, spiritual globalization, foreign ideas.

Zamon shiddat bilan taraqqiy etar ekan yangi fikr, yangi g‘oyalar ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib boraveradi. Biz texnologiya asrida yashamoqdamiz. Bu esa yer sayyorasining bir nuqtasidan turib boshqa bir nuqtasi bilan bog‘lananishimiz va ma’lumotlar almasha olishimiz uchun imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Ammo biz nazarda tutayotgan imkoniyatlardan ongli ravishda to‘g‘ri foydalana olish uchun har bir insonda ma’naviyat shakllanmog‘i lozim. Yoshlarni yot g‘oyalardan asrash, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning ushbu so‘zlari aslida hammamizni ogohlikka chaqiradi. “Tarbiyachilar, olimlar, domlalar tomoshabin bo‘lib o‘tirmasligi lozim. Farzandlarimizni kim to‘g‘ri yo‘lga soladi, kim ularning ongini tozalaydi, kim ularga haq gaplarni gapirib, hayotda o‘z e’tiqodiga suyanib yashashga o‘rgatadi, tarbiyalaydi? Yoshlarning to‘g‘ri yo‘lni tanlashda kim birinchi bo‘lib yordam berishi kerak, ularga kim tayanch bo‘lishi lozim?”

Ma’lumki, iqtidorli ammo sodda yoshlarimizni turli va’dalar bilan og‘dirib, chet elga o‘qish yoki sayohatga yuboradigan nohukumat fondlarining asl qing‘ir maqsadlari oshkor bo‘lmoqda. Ular go‘yoki O‘zbekistonga yordam berish (ya’ni yoshlarimiz o‘qib kelsa, chet el tajribasini ulardan biz ham o‘rganamizda) niqobi ostida o‘z mamlakatlariga olib ketib, iqtidorli yoshlarimizni chalg‘itib, shohona hayot va’da qilib, o‘sha yerda olib qolishga urinmoqdalar yoki hali ongi yetarli shakllanib ulgurmagan yoshlarni o‘z vatanlariga qarshi qayramoqdalar. Maqsad ravshan – iqtidorli yoshlarni ongiga kishan solib o‘zi istagan yo‘ldan boshlash. Shu boisdan ham har bir yosh qalbida vatanga muhabbat tuyg‘usi tomir otmog‘i , ma’naviyat bilan yo‘g‘rilmog‘i lozim.

“Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Ya’ni inson o‘zligini anglagani, nasl nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib yuksala boradi.” Bu ildiz qancha chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi”. Inson ma’naviyati o‘sgani sari dunyoqarashi ham o‘zgaradi.

Davlatimiz yoshlar bandligini ta’minlash maqsadida tadbirkorlikka keng yo‘l ochib bermoqda. Lekin, bizda iqtisodiy tarbiya bilan bir qatorda ongli o‘z-o‘zini boshqarish tarbiyasi to‘laqonlicha shakllanmagan.

Hammamizga ma’lumki, katta Avtomobil kompaniyasi sohibi “Ford” o‘z biznesini bir necha gazeta chop etib sotishdan boshlagan va tushgan foydaga yanada mukammalroq uskuna sotib olgan. Tinimsiz mehnat mevasi, ya’ni “Ford” kompaniyasini hozir dunyo tan olgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Nega bizning deyarli ko‘pchilik yoshlarimiz ham xuddi shunday, ya’ni barchasini kichik faoliyatdan boshlashga va yuqori natijaga bosqichma-bosqich sabr bilan, matonat bilan

erishishni emas, balki birdan “moyli joy”ga ega bo‘lishni xohlashadi? Bu o‘rinda ma’naviy hayotni asosiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

“Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so‘zlangan nutq. 2017yil 30iyun.

Prezidentimizning bu masalada aytgan yuqorida fikrlari ham so‘zimizni isbotlaydi. Davlatimiz konstitutsiyasida ham yoshlar uchun alohida moddalar ishlab chiqilgan. Jumladan Konstitutsiyada belgilangan XIV bob 79-moddada Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi haqida so‘z yuritilgan. Milliy taraqqiyot yo‘lida yoshlar borasida bundan ham kerakli ishlar qilinmoqda va rejali hamkorliklar hamma jarayonlar amalga oshirilmoqda. Ulardan eng ko‘zga ko‘rinarlisi kitobxonlikni targ‘ib qilish desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Axir bugun bitta kitob o‘qigan bola ertaga o‘nta televizor ko‘rgan bolani boshqaradi. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida quyidagi paytni aytib o‘tadi: “Hayo, nomus imona dalildur, hayosiz doimo xor-u zalildur. Uyalma ma’rifat hosil qiluvdan, Maorifsiz kishilar murda dildur.” Muddao shuki, biz kitobxonlikni yana ham kuchliroq isloh qilishimiz uchun o‘tmish allomalarimiz asarlarida qayd etilgan ta’lim-tarbiyaga oid meroslarini chuqur o‘rganib, tadqiq etib, ulardagi eng ilg‘or tajribalarni hozirgi zamon pedagogik jarayonlarga dadil tadbiq etishimizdan iborat.

Biz ma’naviy globallashuv asrida yashayotganimiz ma’lumki, yoshlarni o‘zga g‘oyalardan asrash uchun ham kurashmog‘imiz lozim. Dunyoda nimalar bo‘layotgani siz-u bizga begona emas. Qaysidir mamlakatlarda yigit va qizlar nigohsiz yashashadi, keyin yo turmush qurishadi, yoki ajralib ketishadi. “Okna” ko‘rsatuvida esa bir rus millatiga mansub ayol o‘z erini xiyonat qilishi mumkinligini, erkak va ayol teng huquqliligini shama qilib, o‘zi ham xiyonat yo‘lidan yurishga haqli ekanligini gapirgan. Yoki yana bir ko‘rsatuvlarning birida bir qiz ikki yigit bilan tanishib, ular bilan obdan birga bo‘lib yurgandan so‘ng birini tanlaydi. Bu kabi nomaqbulchiliklar bizning mentalitetimizga aslo to‘g‘ri kelmaydi. Ammo afsuski, biz qoralayotgan hayot ayrim yoshlarimiz ongini egallab, o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Axloq me’yorlari ustun bo‘lishi kerak bo‘lgan har qanday jamiyat o‘z farzandlarini buzuq g‘oyalardan asrashi lozim. Zeroki, axloqsizlik avj olgan jamiyat vaqt o‘tib, tanazzulga yuz tutadi. Aynan shu kabi sabablarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekistion Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ta’sis etildi. Unga ko‘ra:

Yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan:

Birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

Ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

Uchinchidan, o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

To‘rtinchidan, o‘qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeyi va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

Beshinchidan, yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan maqsadga to‘liq erishilmasligiga sabab bo‘lmoqda;

Oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Har bir muammo kun kelib yechimini topadi. Ammo, muhimi biz taraqqiyot yo‘lida yoshlar ma’naviyatini o‘stirish borasida samaraga erishishimiz va buni qo‘ldan boy bermasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Qodirov. Tashqi ta’sir zarari: Nima qilmoq kerak?. Toshkent – Zarqalam, nashr. 2005.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent – “O‘qituvchi” 1992

4. Ilkhomovna, M.S. (2023). Issues in the development of socio-intellectual competence of adult student-youth in incomplete families in higher educational institutions.

5. Ilhomovna, M. S. (2022). Significance and role of pedagogical creativity.